

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tajibayeva Latofat Farxodovna TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING ADABIYOTDA AKS ETISHI.....	5
2. Syuy Myao КРАТКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ И РИТОРИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В «ЗОЛОТОЙ ЦЕПИ» ЧЖАН АЙЛИН.....	9
3. Najmiyeva Po‘lotoy Tilavmurodovna O‘ZBEK VA YAPON TILLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI VA YAPON TILIDAGI KELISHIK PARTIKULALARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK MOHIYATI.....	14
4. Lutfilloeva Faxriniso Maxmudovna ЯПОН МИЛЛИЙ МАФКУРАСИДА ТИЛ ОМИЛИ ВА УНИНГ ИДЕОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ.....	20
5. Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich TURKIY VA INGLIZ TILLARIGA MUSHTARAK SO‘ZLAR HAQIDA.....	25
6. Ergasheva Tursunoy Abdukaюmovna ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ ВА SALES TAX АТАМАЛАРИНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ.....	29
7. Xolikov Bahodir DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA.....	34
8. Nilufar Abduraxmonova, Mahliyo Eshmamatova PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI.....	40
9. Hasanova Sevinch Hotam qizi THE MULTILEVEL STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM AND ITS CONCEPTUAL INTERPRETATION IN TRANSLATION THEORY.....	52
10. Namazova Manzura Urakovna O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM (O‘ZBEK ROMANLARI ASOSIDA).....	58
11. Mavloнова Наргиза Алишеровна ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СООТВЕТСТВИЙ И ИДЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ СООТВЕТСТВИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	63
12. Ismailov Anvar Rustamovich CHET TILI O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI.....	70
13. Achilova Zuxra Qurbonovna “MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI.....	75
14. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi O‘ZBEK TILIDAGI NORP OBYEKTLARINI BIOES ANNOTATSIYA SXEMASI ASOSIDA ANIQLASH.....	88
15. Kim Татьяна Сергеевна ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ НОВОСТНОГО ТЕКСТА КОРЕЙСКИХ ГАЗЕТ.....	96
16. Laziza Dzhianbayeva РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТУРФУН БИРИКМАЛАР.....	102
17. Laziza Dzhianbayeva SOCIAL CHARACTERISTICS OF COLOR SEMANTICS.....	108
18. Makhammatkulova Diyora Nodirovna, Makhammatkulova Iroda Nodirovna, Rahimov Nodir Makhammatkulovich DIGITAL FOOTPRINT AS A PHENOMENON OF MODERN EDUCATION.....	114

19. Boboyev Ulash Ne'matovich OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILINING LEKSIK IMKONIYATLARI (GAZETA TILI MISOLIDA).....	120
20. Файзуллаева Мохинорабегим Бехзодбек кизи СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ИЗВИНЕНИЯ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	124
21. Rashidova Muxlisa, Sobirova Madina Mahmudjon qizi UNIVERSAL DEPENDENCIES MODELI DOIRASIDA SINTAKTIK ANNOTATSIYALANGAN KORPUSLARNI TAHLIL QILISH.....	129
22. Ишниязова Шахноз Ашировна МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТОТЕМИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: К ПРОБЛЕМЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОЙ БЛИЗОСТИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА.....	135
23. Тошбекова Дилором Исмоиловна СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	143
24. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	149
25. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	154
26. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	161
27. Hakimov Muxamadali Rafikovich ITALYAN TILIDA "ERKAKLIK" GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL.....	170
28. Lola Ibragimova INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR (SOG'LIQ-SALOMATLIK MAQOLLARI MISOLIDA).....	176
29. Nazirova Munisa Mirzakamalovna MODAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK ASOSLARI.....	182
30. Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li AKADEMIK G'ANIJON ABDURAHMONOVNING "TARIXIY SINTAKSIS" ASARIDA QO'SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	186
31. N.Z.Abduraxmonova, Salomat Otamurodova MASHINA TARJIMASI VA LINGVISTIK JARAYONLAR.....	191
32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO'LISHI.....	198



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Xolikov Baxodir

PhD, Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,
xoliqov-b@samdchti.uz

DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19322500>

ANNOTATSIYA

Maqolada qadimgi o‘zbek xalqining dominant obrazlaridan biri — dev bilan bogliq mifologik qarashlar va bu tushunchaning epik asarlar matnlaridagi talqinlari qiyosiy tahlil doirasiga tortildi. Ishda dev mifologik obrazning kelib chiqishi, manbalari, evolyutsiyasi, o‘zaro o‘xshashlik va farqlari qiyosiy jihatdan o‘rganildi, dev obraziga xarakteristika berildi.

Kalit so‘zlar: mifologiya, dev, zardo‘shiylik, turkiy mifologiya, xalq va yozma dostonlar.

Xolikov Baxodir

PhD, Associate professor of the Department of Comparative Literature
Rector of Samarkand State Institute of Foreign Languages
xoliqov-b@samdchti.uz

DAEVA AS ONE OF THE DOMINANT FIGURES IN UZBEK MYTHOLOGY

ABSTRACT

This article examines mythological beliefs associated with one of the dominant images of the ancient Uzbek people — the daeva (giant) — and the interpretations of this concept in the texts of the Avesta and epic works. The paper provides a comparative study of the origins, sources, evolution, similarities, and differences of the mythological image of the daeva (giant), and characterizes this image.

Keywords: mythology, daeva, Zoroastrianism, Turkic mythology, folk and written epics.

Холиков Баходир

PhD, доцент кафедры сравнительного литературоведения
Ректор Самаркандского государственного института иностранных языков
xoliqov-b@samdchti.uz

ДИВЫ КАК ОДИН ИЗ ДОМИНИРУЮЩИХ ОБРАЗОВ УЗБЕКСКОЙ МИФОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются мифологические воззрения, связанные с одним из доминирующих образов древнеузбекского народа — дивом (великаном), и интерпретации этого понятия в текстах “Авесты” и эпических произведений. В работе проводится

сравнительное исследование происхождения, источников, эволюции, сходств и различий мифологического образа дэва (великана), дается характеристика этого образа.

Ключевые слова: мифология, дивы, зороастризм, тюркская мифология, народный и письменный эпос.

Kirish. O‘zbek xalq mifologiyasi ming yillik tarix davomida turli madaniy qatlamlarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllangan boy va rang-barang tizimdir. Bu tizimning eng muhim va dominant obrazlaridan biri — dev bo‘lib, u qadimgi turkiy, eroniy (zardushtiy), keyinchalik islomiy va fors adabiy an‘analari o‘ziga xos yo‘l tutib kelgan.

Dev obrazi ilk bor zardushtiy dinining muqaddas kitobi — Avestoda daeva shaklida uchraydi va bu so‘z dastlab yovuz ruhlar, yolg‘on va buzuvchi homiylari sifatida talqin qilingan. Keyinchalik, islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi, fors adabiyoti (ayniqsa Firdavsiy “Shoxnoma”si) ta‘siri hamda o‘zbek xalq o‘zaki ijodi (dostonlar, ertaklar, afsonalar) doirasida dev obrazi tubdan o‘zgarib, ko‘p qirrali va ko‘p ma‘noli obrazga aylanadi.

Agar Avestodagi daevalar sof yovuzlik timsoli bo‘lsa, o‘zbek folklorida dev bir vaqtning o‘zida ham dahshatli antagonist, ham ahmoqona kuchli gigant, ham qahramon tomonidan osonlikcha yengiladigan sodda personaj, hatto ba‘zan yordamchi yoki xizmatkor sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu evolyutsiya dev obrazining nafaqat mifologik, balki badiiy-estetik va ijtimoiy-psixologik mazmunini ham chuqurlashtirgan.

O‘zbek mifologiyasida devning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ulkan tana va g‘ayritabiiy kuch;
- ko‘pincha zoomorf (hayvoniy) belgilarga ega bo‘lishi (shox, tuyoq, jun, suyloq tishlar);
- ranglar bo‘yicha tasnifi (Oq dev, Qora dev, Qizil dev va boshqalar);
- faoliyat va xususiyatlarga ko‘ra nomlanishi (Balo dev, Ovsar dev, Hasan Ko‘lbar, Hasan Yakdast);
- bir vaqtning o‘zida yovuz va kulgili, dahshatli va ojiz bo‘lish qobiliyati.

Dev obrazi o‘zbek xalq dostonlari (“Go‘ro‘g‘li” turkumi, “Yunus pari”, “Malika Ayyor” va boshqalar), xalq ertaklari, rivoyatlar va hatto geografik nomlarda (Dev qal‘a, Devsolgan) izchil saqlanib qolgan. Bu obraz nafaqat qadimgi e‘tiqodlar qoldig‘i, balki xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, qo‘rquv va umid, kuch va aql o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi muhim badiiy timsol sifatida ham qimmatlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Respublikamizning mustaqillikka erishishi barcha sohalar qatori mifologiyamiz rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Bu davrda yurtimiz tarixi, an‘ana va qadriyatlariga oid asotir va rivoyatlar to‘plab nashr qilindi[1;128], naqlar, afsona va rivoyatlar o‘rganildi[2; 128]. Olimlarimiz tomonidan jodugar[3; 77-88], dev[4], pari[5] obrazlarining mifologik asoslari tahlil etildi. Quyida o‘zbek mifologiyasida ming yillardan buyon dominant obraz bo‘lib kelayotgan dev obrazi va uning milliy o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritimiz.

Dev deb ataladigan maxluq haqidagi dastlabki ma‘lumotlar zardo‘shiylikning muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”da keltirilgan bo‘lib, ular ulkan tanaga ega bo‘lgan g‘ayritabiiy odamsimon mavjudotlar sanalgan[6; 226]. Islom dinining Markaziy Osiyoda keng tarqalishi natijasida dyev kabi zardo‘shiylikdan qolgan ayrim mifologik personajlar metamorfozalarga uchragan: yovuzlik ruhi, barcha buzuvchilarning homiy kuchi oldingi demiurglik xususiyatini yo‘qotib, xalq romanik dostonlardagi va ertaklardagi qudratli, biroq, sodda va ahmoq personajga aylangan. Hazrat Alisher Navoiyning epik va lirik asarlarida dev obrazi fors an‘analari zaminida, asosan, majoziy timsol sifatida talqin qilindi; “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi “Yunus va Misqol pari”, “Malika Ayyor” kabi dostonlarda dev obrazining turfa turlari qahramonga qarshi kurashadigan asosiy antagonist va ayni vaqtda, qahramonning kuch qudrati va aqlu idroki oldida ojiz qolib unga tobe‘ bo‘luvchi obraz sifatida namoyon bo‘ldi.

Davrlar mobaynida dev obrazi badiiy evolyutsion jarayonlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Dastlab dev jun bosgan, shoxli, katta tirnoqli, cho‘qur yer osti g‘orlarida yashovchi badbo‘y gigant maxluq deb tasvirlangan bo‘lsa, keyinchalik u ko‘p boshli va bir yoki ko‘p ko‘zli, yanada ulkan va beo‘xshov ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bunday ko‘rinish vaqt o‘tishi bilan salbiy sifatlarni yanada ortirib borgan.

Yer qimirlashlar va zilzilalar uchun mas’uliyat devlarning zimmasiga yuklatilgan. Chunki ular yer osti ustaxonalarida qimmatbaho toshlarni bunyod etish uchun o’zlarining zargarlik faoliyatlari bilan shug’ullanganlar. Bu faoliyat ingliz adabiyotidagi gnom va elflarning faoliyatlarini yodga soladi.

Devlarning xarakterlik xususiyatlari	
1.	Kuchli tana, rivojlangan mushaklar, maxluq bashara, ko’pincha — ulkan qad.
2.	Juda kuchli va yashovchan, gohida ingliz mifologiyasidagi qardoshlari-trollar kabi shaklini o’zgartirishi mumkin.
3.	Zoomorf xususiyatlarining ko’pligi: og’zidan suyloq tishlarning chiqib turishi: qalin va qattiq tirnoqlar, shoxchalar, badanining qalin jun bilan qoplanganligi, dum, gohida oyoq osti o’rnida — tuyoqlar.
4.	Badanining turli rangda bo’lishligi: Oq dev, qora dev, qizil dev, sariq dev.
5.	Vujudining shakliga ko’ra nomlangan devlar: Govdaroz dev, Baymoq dev
6.	Faoliyatiga qarab nomlangan devlar: Balo dev, Ovsar dev, Gupsar dev, Hasan Ko’lbar, Hasan Chopson, Hasan Yakdast.
7.	“Qo’shimcha” a’zolarga ega bo’lgan devlar: bir yoki uch ko’z, bir nechta qo’l yoki boshlar
8.	Syehrni boshqaradigan, inson yoki hayvon ko’rinishini oladigan, tabiat hodisalarini boshqaradigan devlar.
9.	Ochofatligi, odamho’rliqi, nafsni jilovlay olmasligi bilan ajralib turadigan devlar.
10.	Asosiy quroli – po’lat zanjirli va tikanli to’qmoq.

Muhokama va natijalar. Devlar taom sifatida qafaslarida saqlangan odamlardan bir-ikkitasi ham yeyishgan. Tutqunlikdagi odamlarning nolalariga, duolariga, xudoni o’rtaga quyib qilgan iltijolariga kufrona so’zlar va qiliqlar bilan javob qaytarishgan. Ulug’ fors adabi Abulqosim Firdavsiyning “Shoxnoma” asarida (Garchi asar konret muallifga ega bo’lsa-da, unda eron xalqlari folklorining mohiyati, majmui aks etgan) — yovuz devlar qatori yaxshi niyatli vakillari ham ishtirok etgan. Devlar chiroyli qizlarni o’g’irlashgan, ularga qarshi pahlavonlar, adolatparvar podsholar kurash olib borgan, agar qahramon jangda yengilsa, uning o’rniga do’stlari qasd olishgan.

“Shoxnoma” syujetiga ko’ra, qadimda, Mozandaron degan joyda devlarning podsholigi bo’lgan. U yerning hukmdori esa Oq dev bo’lgan. Gohida ularni arab folkloridan kirib kelgan jinlar bilan almashtirishgan, jinlar kabi devlar ham bosim, yoki ishonch tufayli islomni qabul qilishlari mumkin bo’lgan. Bunday tasavvur, albatta, islom dini tushunchalari zaminida yuzaga kelgan. Biroq dyevlar jinlardan farqli o’laroq foniidir.

Devlar gohida yaxshiliklar ham qilishgan, albatta, o’z ihtiyori bilan emas, balki qudratli inson yoki zarurat ostida ezgu faoliyat ham olib borishgan. Xorazm xalqi orasidagi bir rivoyatga ko’ra u yerdagi ko’hna qal’aga dev asos solgan: “Hazorasp tumani markazida uch ming yillik tarixga ega qadimiy Sulaymon qal’a — Dev qal’a xarobalari saqlangan”[7]. “Xorazmning sharqiy hududida joylashgan Hazoraspda «Devsolgan», «Hazorasp» va «Sulaymonqal’a» nomlari bilan mashhur bo’lgan qal’a bor”[8]. “Hazorasp qal’asining qurilishi haqida bir qator afsona va rivoyatlar mavjud. Xususan, qal’aning dastlabki davrdagi tarixi yaxudiytlarning to’rtinchi podshosi — Solomon (Sulaymon) nomi bilan bog’lanadi. Keyinchalik mahalliy xalqning tilida ushbu qal’a «Devsolg’an» nomi bilan yuritila boshlangan...”[9] Xorazmdagi rivoyatlarga qaraganda Sulaymon payg’ambar topshirig’iga ko’ra Hazoraspda qal’a solgan dev o’sha yerdagi bir pari qizga oshiq bo’libdi va oila quribdi. Xorazmliklarning baquvvat va chiroyli bo’lishlarining sabablaridan biri – ularning asli shu parilar avlodi ekanligida ekan. Umuman olganda parilar, odatda devlarning qiz va ayollari sifatida talqin qilingan. Lekin ular ayollarining erkak devlarga o’xshash ko’rinishlilar ham bo’lgan. Odatda, devlar va parilar insonlarni ko’hlik deb hisoblashmagan. Ular o’z jinsdoshlari bilan sevishishgan, oila qurishgan. Gohida parilarning insonlar bilan turmush qurishi hollari ham mavjud bo’lgan. Bunga “Go’ro’g’li” turkumidagi Yunus va Misqol pari bilan bog’liq syujetlarda ko’rishimiz mumkin.

Devlarning modalari, ularning muhabbati va rashki qay darajada bo’lganligi haqida xalqimiz orasida ushbu afsona kabi hikoyatlar saqlanib qolgan: Rivoyat qilishlaricha, bir sahroda ikki do’st dev inoqlikda yashagan ekan, bir kuni ular kimning xotini chiroyliroq ekanligi ustida bahslashib

qolibdi va shu bilan janjallashib qolishibdi. Ikki go‘zal ham deyarli bir xil – sochlari paxmoq, tishlari suyloq, minoralar kabi ulkan, karkidon kabi to‘ladan kelgan ekan. Biroq devlar bu masalada uzilkesil bir to‘xtamga kelishga qat‘iy qaror qilishibdi. Bir-birlarining soqollari yulgan va shoxchalarini sindirib bo‘lgan erkak devlar konsensusga kelisha olmay, uchinchi, xolis bo‘lgan kimsaga ehtiyoj sezishibdi. Ularning baxtiga bir qaroqchi o‘sha sahroda jazodan qochib, jon saqlab yurgan ekan. Uni tutib kelishgan devlar qaroqchining qo‘rquvdan o‘ziga kelib olishga vaqt berib, keyin o‘zlarining talablarini quyishibdi – ularga odil hukm chiqarib berish, bo‘lmasa, o‘lim. Shunday qilib to‘rt dev qaroqchining oldida tizilib turishdi, – devlarning xotinlari qaroqchiga turli qiliqlar qilib, ko‘zlarini so‘zib, o‘ynatib, nimalargadir sha‘malar qila boshlashdi, ya‘ni, meni tanla, mukofotlar bor, yonimdagini tanlasang, tepalikda o‘choqda qaynayotgan qozonda qaynashingni o‘yla kabi. Qaroqchi bu masalani ajoyib tarzda yechdi, uning javobi shunday bo‘ldi: “... erining ko‘zini quvontirgan xotin eng go‘zal xotindir”. Bu javob devlarga ma‘qul kelib, ular qaroqchini qo‘yib yuborishibdi. Qaroqchi bu voqeadan keyin tovba qilib, yomon ishlarni butkul yig‘ishtirib, pok va halol yashay boshlabdi [10].

“Yunus pari” dostonida yorga yetishish uchun safarga chiqqan... Go‘ro‘g‘li ana shu kimsasiz, vahimali tog‘da Baloga (dev) duch keladi: “Go‘ro‘g‘li shunday qarasa, bir narsa yotibdi. Bir qulog‘i ko‘rpaday, bir qulog‘i supraday, bo‘ylari minoraday, kipriklari chinorday, buni ko‘rib Go‘ro‘g‘libekning hushi boshidan uchdi. Uning otini Balo dev deguvchi edi. Buni Yunus pari qorovul qip qo‘yib edi, “Shu yoqdan odam kelsa yeysan”, deb. O‘zining Go‘ro‘g‘libekdan gumoni bor edi” [11; 180].

Balo dev Go‘ro‘g‘lini yemoqchi bo‘ladi:

“Yeganim odamning go‘shiti,

Shukur ovim baror oldi... [11; 181].

Dev Go‘ro‘g‘lining qudratli ko‘z qarashiga dosh bera olmay, qo‘rqadi. “Go‘ro‘g‘lining ko‘zi devdan o‘tib ketdi”, deb izohlanadi dostonida. Go‘ro‘g‘li devga butun Balo tog‘i uning mulki ekanini aytib yana zug‘um qiladi:

“Bilsang, sen avvalgi ovim,

Sop bo‘lmaydi senga gapim,

Balo tog‘ o‘zimning tog‘im.

Ajal to‘ningni bichaman,

Po‘lat sopli xanjarimni,

Ko‘krakkinangga sanchaman.

Avval seni yeb bo‘lgan so‘ng,

O‘zim osmonga uchaman” [11; 183].

O‘zbek folklorida devlarning yana bir toifa – insonga xizmat qiluvchi, biroz komik xislatli turlari uchraydi. Bunday personajlarga uch g‘aroyib xislatli dev – Hasan Ko‘lbar, Hasan Chopson, Hasan Yakdastalar misol bo‘ladi. Bu uch Hasan nomlariga qo‘shilgan sifatlariga mos: Hasan Ko‘lbar – oshxo‘r, Hasan Chopson – chopog‘on, Hasan Yakdast – polvon.

Hasan Ko‘lbarligi va ayni vaqtda shunga mos ravishda kuchliligi ertak va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda yumoristik tarzda tasvirlanadi: Qrim podshohining taklifiga Qrimga to‘yga borgan Hasan Ko‘lbar u yerdagi mezbonlarning bergan taomlariga sira to‘ymay, janjal kutaradi: «Nahotki qrimliklar podshohi shunchalik kambag‘al bo‘lsa, bir meni to‘ydira olmaydi-yu yana butun Chambilni chaqiribdi» - deb norozi bo‘ladi. Avazxondan arazlagan bo‘ladi: «Uy-boy, bolam, meni bunday maydalab qachon to‘yg‘izasan, oshing bormi, bo‘lgani shumi?! To‘y deganing shu yermi, yo bir yerga mehmon bo‘lib qo‘ndikmi, to‘yxonang qay yerda? To‘yxona shu yer bo‘ladigan bo‘lsa, meni nimaga halak qilding, to‘yning oshi shu bo‘lama, to‘y bor deb aldab, o‘tirik aytib, meni mazax qilgan ekansan-da. Soqolim oqarganda halak bo‘ldimmi?».

Hasan Ko‘lbarni to‘ydirolmay, shoshib qolgan qrimliklar: « Masjidning katta qozonini olib keling, katta uchoqni o‘ying, molni galasi bilan so‘ying, haq, deb ostidan olovni qo‘ying. Endi poda ham demang, tana-sho‘lpi ham demang, ho‘kiz sigir ham demang, echki qo‘y ham demang, cho‘bir, cho‘ltoq, baytal-saytal ham demang, eshak ham bo‘lsa so‘yib tashlab yubora bering, bachchag‘arning oldiga uying, juda ko‘p qilib qo‘ying shu to‘ysin» [12; 50].

O'zbek folklorida rudapo degan mifologik obraz ham uchraydi. Uni nisbiy tarzda ayol dev tarzida tushunish mumkin. Tadqiqotchi Egamqulov Kamoliddin keltirishcha: "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida dev, pari, rudapo, qirq chilton, Xizr, Ilyos, ajdahar (ajdarho) kabi mifologik obrazlar uchraydi. Dostonda rudapo mifologik obrazining kelishi Shomurod shoir ijodining o'ziga xosligini bildiradi. Chunki, boshqa baxshilar ijodida kuzatilmaydi. Dostonda Avazxon rudapo momoning nayrangiga aldanib qoladi. "Bor Avazxon bir rudapaga ilashgan, dedi. Bir rudapa yoshlari bir yuz sakson, bir yuz to'qsonga kirgan, Avazxonni qonini so'rib yotipti, dedi." Rudapo obrazi O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida uchraydigan mifologik obraz hisoblanadi. U sakkizta paypaslagichli so'rg'ichi bor maxluq sifatida, juda ham yoshi keksa, ozg'in, yomonlik qiluvchi kampir qiyofasida tasvirlanadi[13; 210].

Xulosa. Dev obrazi Sharq xalqlari mifologiyasida, jumladan, o'zbek folklorida va mumtoz adabiyotda keng tarqalgan dominant obrazlaridan biri sifatida tanilgan. Pari, ajdarho, chiltanlar kabi dev obrazi ham o'z ildizlarini qadimgi fors mifologiyasi, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"dan olgan. Bu obrazgacha ham o'zbek (turkiy) mifologiyada ulkan, bahaybat odamsimon mahluq obrazlarining turlicha variantlari bor bo'lib bo'lib, ular Erlikxon, Tepako'z kabi nomlar bilan atalgan. Tepako'zni hisobga olmaganda, bunday ulkan maxluqlar, asosan, ezgulik tomonida bo'lib, insonlarga yordam berish, mushkulini oson qilish bilan shug'ullangan. Bu ijobiy jihatlar ma'lum ma'noda o'zbek (turkiy) mifologiyaga fors mifologiyasidan o'tgan devlarning ayrimlarida ham aks etgan. Shu sababli, oshxo'r Hasan Ko'lbar, yugurishda tengsiz bo'lgan Hasan Chopson kabi mifologik obrazlar garchi dev maqomida bo'lishsa-da, ularda ijobiy hislatlar namoyon bo'lgan. Hattoki, ayrim dostonlarda qudratli biroq soddadil bo'lgan turli devlarni qahramon o'z izmiga solishi va o'ziga xizmat ham qildirishi mumkin bo'lgan. Anglashiladiki, dyev obrazi o'zbek mifologiyasida ratsional evolyutsiyani, sof o'zbekona milliy koloritni o'zlarida aks ettiruvchi transformatsiyani boshidan kechirib, yangicha mazmundagi dev obrazining variantini hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: М.Муродов, М.Шайхова. - Тошкент: Ёш гвардия, 1990. ISBN: 5633004434, 9785633004434.
2. Боболардан қолган нақллар: афсона, ривоя, ирим-сирим ва халқ тақвими (тўплаб нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи М.Жўраев, У.Сатторов). – Тошкент, Фан. 1998; Ирак уо'ли афсоналари. Тuzuvchi: М. Jo'raev –Т.: Fan, 1993.
3. Имомов К. Ялмоғиз-жодугар образи талқинига доир/Ислом шоир ва унингхалқ поэзиясида тугган ўрни-Тошкент: Фан, 1979.
4. Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. ~ Тошкент, 1996.
5. Қаюмов О.С.Ўзбек фольклорида пари образи . Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. ~ Тошкент, 1999.
6. Э. Г. Гафферберг. Пережитки религиозных представлений у белуджей (рус.) // Г. П. Снесарев, В. Н. Васильев Домусульманские верования и обряды Средней Азии : Сборник статей. — М.: «Наука», 1975.
7. Ҳасан Р. “Ёшлар” истироҳат боғи туман маркази кўркига кўрк қўшди. Янги Ўзбекистон. 21 октябр 2021
8. Бекназарова Г. 3 минг йиллик қалъа йўқ бўлиб кетадими? Миллий тикланиш. 06.02.2025.
9. Маҳмудов М. Ҳазорасп — Хоразмнинг жанубий қалқони. <http://horazmiy.uz/uz/pages/view/148>
10. Dalinsky А. Популярная шайтанология. Дэвы – sklyarevskiy. <https://sklyarevskiy.livejournal.com/2199130.html>
11. Юнус пари. Айтувчи: Муҳаммадқул Жонмурод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: Шаҳзода Хўжаева.–Т., 1967.– 318 б.
12. Эргаш Жуманбулбул ўғли, Холдорхон. Қўлёзма, Тил ва адабиёт институти фольклор архиви, инв. № 898, 29.

13. Эгамкулов К.С. Шомурод шоирнинг бадиий маҳорати («Овсар дев билан Гупсар дев» достони мисолида). “Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024-yil 21-oktabr.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000